

QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORIIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITIARI

Boltayev Umidjon Talant o‘g‘li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

“Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk” kafedrasida dotsenti v.b., PhD.

Annotatsiya

Maqolada qurilish sanoatida investitsion jozibadorlikni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Qurilish tarmog‘ining iqtisodiyotdagi o‘rni, investitsion muhitni belgilovchi omillar hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish shart-sharoitlari tahlil qilingan. Maqolada qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali investitsion jozibadorlikni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion jozibadorlik, qurilish sanoati, investitsion muhit, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, davlat–xususiy sheriklik, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация

В статье раскрыта сущность и условия формирования инвестиционной привлекательности строительной отрасли. Рассмотрены роль строительного комплекса в экономике, факторы, определяющие инвестиционный климат, а также механизмы привлечения иностранных инвестиций. Особое внимание уделено повышению конкурентоспособности строительных предприятий, внедрению инновационных технологий и развитию механизмов государственно-частного партнёрства как ключевых инструментов обеспечения инвестиционной активности.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, строительная отрасль, инвестиционный климат, конкурентоспособность, инновации, государственно-частное партнёрство, устойчивое развитие.

Abstract

The article examines the essence and conditions for shaping the investment attractiveness of the construction industry. It highlights the role of the construction sector in the national economy, the factors influencing the investment climate, and the conditions for attracting foreign investments. Particular attention is given to enhancing the competitiveness of construction enterprises, introducing innovative technologies, and developing public–private partnership mechanisms as key drivers of investment growth.

Keywords: investment attractiveness, construction industry, investment climate, competitiveness, innovation, public–private partnership, sustainable development.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitlarida makro-, mezo- va mikro darajalarda investitsiyalarning barcha turlaridan foydalanish samaradorligi masalasi dolzarb nazariy va amaliy vazifa maydoniga o‘tdi. Globallashtirish milliy xo‘jaliklar va iqtisodiyotning alohida subyektlari o‘rtasidagi chegaralarni o‘chirib yubormoqda.

Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Har xil turdagi aktivlarga investitsiya kiritish orqali mintaqalar, tarmoqlar va korxonalar asosiy kapitalni oshirib boradi hamda uning tuzilmasini o'zgartiradi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni diversifikatsiyalaydi, sifatini oshiradi va yirik loyihalar hamda dasturlarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etadi.

Investitsiyalash hajmlari va yo'nalishlari nafaqat iqtisodiy o'sish vazifalari bilan, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlarning muvozanatlashganligiga asoslangan jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan ham belgilanadi. Investitsion faoliyat ustuvorliklari qulay investitsion muhitni shakllantirishga, iqtisodiyotda o'sish nuqtalarining jadallashuvini rag'batlantirishga hamda investitsion jarayonlarni faollashtirish uchun institutsional shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan davlat iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi.

Investitsion muhit ikki tarkibiy qism — investitsion jozibadorlik va investitsion faollik asosida shakllanadi. Iqtisodiy o'sishning barcha bosqichlarida investitsion resurslarning cheklanganligi mamlakatlar, mintaqalar va mahalliy tashkilotlar o'rtasida ular uchun raqobatni kuchaytiradi, natijada investitsiyalashning yanada samarali usullarini izlab topishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan: "...investitsiyalar — foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchilik asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlardir" [1]. Mazkur ta'rif investitsiyalarni foyda yoki boshqa manfaat olish maqsadida iqtisodiyotning istalgan sohasiga kapital kiritish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, investitsiyalar tuzilmasida iqtisodiyotning real va savdo-moliyaviy sektorlariga kapital kiritilishini farqlash lozim. Real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, yalpi ichki mahsulotning o'sishiga olib keladi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtiradi va natijada aholi turmush darajasini yaxshilaydi.

Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridan biri sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu tarmoq infratuzilmaning yangilanishi, sanoat korxonalari, turar joy va ijtimoiy obyektlarning qurilishi orqali iqtisodiy o'sishning kuchayishiga, bandlikning ortishiga hamda investitsion faollikning oshishiga xizmat qiladi. Shu bois qurilish sanoatida investitsion jozibadorlikni shakllantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etib, tarmoqning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Investitsion jozibadorlik tushunchasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik bilan, balki investorlarga taqdim etilayotgan tashkiliy, huquqiy va infratuzilmaviy shart-sharoitlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda qurilish sohasining investitsion salohiyatini oshirish uchun barqaror investitsion muhit, moliyaviy resurslarga keng kirish imkoniyati, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va institutsional islohotlarning chuqurlashuvi zarur. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda

keng qo'llanilayotgan davlat–xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari ham soha investitsion jozibadorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qurilish tarmog'i so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, qurilish ishlarining umumiy hajmi 2019-yilga nisbatan qariyb 1,7 baravar oshgan bo'lib, investitsiyalar hajmidagi ulushi 17 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmi ham ortib bormoqda, biroq tarmoqda investitsion muhitni yanada yaxshilash zarurati saqlanib qolmoqda. Bu jarayon bir tomondan iqtisodiy liberallashtirish va infratuzilma modernizatsiyasi, ikkinchi tomondan esa innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalash yoki investitsion jarayon – bu kapitalning takroriy ishlab chiqarilishini va uning harakati uzluksizligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish vositalari hamda moliyaviy resurslarni jamg'arish va ulardan foydalanish jarayonidir. Investitsion soha esa kapitalning takror hosil qilinishini ta'minlovchi ishlab chiqarish vositalari va moliyaviy resurslarning jamg'arilishi ro'y beradigan iqtisodiyot tarmoqlarining butun majmuasini qamrab oladi.

Investitsion jozibadorlik – bu keng ma'noda daromad olish maqsadida mavjud mablag'larni kiritish uchun potensial xo'jalik subyekti boshqalariga nisbatan qanchalik afzalroq ekanligini potensial investorga baholash imkonini beruvchi tavsiflar majmuasidir. Aynan investitsiyalarning daromadlilikligi o'z mohiyatiga ko'ra investitsion jozibadorlikning birinchi sharti hisoblanadi. Kapitaldan kim eng samarali foydalana olsa, o'sha bozor subyektlari uni qo'lga kiritadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy adabiyotlarda mamlakat, mintaq va korxonalarda investitsion faoliyat samaradorligini baholashning turli mezonlari atroflicha bayon qilinadi. Bu jarayonda "investitsion iqlim", "investitsion jozibadorlik", "investitsion faollik" kabi tushunchalardan foydalaniladi. Biroq "investitsion iqlim" va "investitsion jozibadorlik" tushunchalari ko'pincha o'zaro tenglashtiriladi.

"Investitsion iqlim" ("investitsion jozibadorlik") tushunchasi umumiy ma'noda turli xil talqinlarga mos holda, u yoki bu mamlakat, mintaq yoki tarmoqda yuzaga keladigan vaziyatning investitsiyalarni yo'naltirishga nisbatan qulaylik darajasini aks ettiradi. Investitsion iqlim (investitsion jozibadorlik)ni baholash iqtisodiy o'sishga ko'maklashuvchi omillar va shart-sharoitlarni tahlil qilishga asoslanadi.

Hozirda maxsus yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orqali kompaniyaning investitsion jozibadorligi darajasini aniqlash mumkin. Bu esa shuni anglatadiki, turli mualliflar bayon qilgan "investitsion jozibadorlik" tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarur.


Misol uchun, P.V. Badinning fikriga ko'ra, investitsion iqlim – bu mazkur mamlakat yoki mintaqaning turli tarmoqlariga kapitalni o'rta yoki uzoq muddatlarga kiritish uchun yaratilgan shart-sharoitlardir [2]. Investitsion iqlim o'z ichiga mamlakatda kapitalni kiritish uchun mavjud siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, g'oyaviy, madaniy va boshqa omillarni oladi. Ularning qulay yoki noqulayligi darajasi investor

tomonidan tavakkal darajasini baholashda e'tiborga olinadi. Investitsion iqlim qanchalik yomon bo'lsa, investor o'zining tadbirkorlik tavakkalini shunchalik yuqori baholaydi va investitsiyalarni kiritish ehtimoli shunchalik pasayadi.

I. Kabashkin va R. Kopitov investitsion jozibadorlikni korxonalar faoliyatining samaradorligi nuqtai nazaridan tahlil qiladi [3]. O.I. Fateeva esa investitsion faollikni amalga oshirilayotgan harakatlarning intensivligi nuqtai nazaridan, investitsiyalash jarayonining o'zini emas, balki xo'jalik subyektining investitsion siyosati muvaffaqiyatligi, holati hamda rivojlanish darajasini belgilovchi omillar majmuasini qamrab oluvchi ko'rsatkich sifatida talqin etadi [4]. O.I. Fateevaning fikriga ko'ra, investitsion faollik nafaqat butun mamlakat, balki alohida mintaqalar va korxonalar iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Dunyoga mashhur iqtisodchi Michael E. Porter investitsion jozibadorlikning asosiy omili sifatida raqobatli afzalliklarning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi. U bu masalani o'zining "Raqobatli strategiyalar" nomli ilmiy asarida atroflicha tahlil qilgan [5]. Michael E. Porter investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillarni uchta asosiy kategoriyaga ajratadi: makroiqtisodiy muhit, investitsiyalarni taqsimlash va aniq investitsion loyihalarning amalga oshirilish shart-sharoitlari.

1-rasmda kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholashda asosiy maqsadlar tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm. Investitsion jozibadorlikni baholash maqsadlari¹

Kompaniyalar investitsion jozibadorligini tahlil qilish va baholashdagi mumtoz nazariya asoschilari Benjamin Graham va David Dodd hisoblanadi. Ular qiymatli investitsiyalashning ilmiy asoslarini yaratganlar. B. Graham va D. Dodd o'zlarining "Oqil investor" nomli mashhur ilmiy asarlarida qiymatli investitsiyalash asoslarini hamda kompaniya va qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymatini tahlil qilish va baholashga fundamental yondashuvlarni ishlab chiqqanlar [6].

¹ Muallif ishlanmasi

2013-yilda Nobel mukofoti laureati bo'lgan R. Shiller ta'kidlaganidek, investorlarning harakatlariga ko'plab omillar ta'sir qiladi, biroq ularning ichida eng asosiysi — emotsional va psixologik omillardir [7]. Ushbu iqtisodchi olim “irrational optimizm” holatida investorlarning ortiqcha daromadlilikni kutish ta'siri ostida bozorda kutilmagan darajada faol bo'lib qolishlarini tahlil qilib bergan.

L. M. Putyatina investitsion jozibadorlikni ma'lum bir ko'rsatkichlar majmuasi sifatida ko'radi. Uning fikricha, bu “korxonada mulkidan foydalanish samaradorligi, uning to'lovga layoqatliligi, moliyaviy barqarorligi, kapital daromadlilikini oshirish negizida innovatsion rivojlanishga qobiliyati, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini tavsiflovchi iqtisodiy kategoriya”dir [8].

K. Shiborsh va G. Birman esa investitsion jozibadorlik deganda investorga qiziqish uyg'otayotgan korxonaga mablag' kiritishning maqsadga muvofiqligini tushunadi. Ularning fikricha, bu jarayon xo'jalik subyekti faoliyatini tavsiflovchi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi [9].

I. V. Sergeev, I. I. Veretennikova va V. V. Yanovskiy xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligini investitsiyalar va investitsion faoliyat samaradorligini baholash bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishni taklif etadi. Ularning fikricha, “investitsiyalar samaradorligi investitsion jozibadorlikni, investitsion jozibadorlik esa investitsion faoliyatni belgilaydi. Investitsiyalar samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsion jozibadorlik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi, investitsion faoliyat ko'lami esa kengayadi va aksincha” [10].

O'zbekiston Respublikasida S. S. G'ulomov, A. F. Rasulov, A. V. Vahobov, N. Sirojiddinov, D. G'ozibekov, Sh. Mustafoqulov kabi iqtisodchi olimlar investitsion muhitni yaxshilash, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish, qulay investitsion iqlimni shakllantirish masalalari bilan shug'ullanganlar.

A. V. Vahobov va Sh. Hojiboqiyev investitsion jozibadorlikka shunday ta'rif beradi: “Investitsion jozibadorlik — bu mamlakatda xorijiy kapital qo'yilmalari vakolatlilik darajasini va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilab beradigan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy hamda ijtimoiy omillar majmuasidir. Investitsion jozibadorlik o'zida murakkab, ko'p qirrali tushunchani namoyon etadi va milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, turg'unlik), bojxona rejimi, valyuta siyosati, tashqi qarz darajasi kabi ko'rsatkichlarni qamrab oladi” [11].

Agar yuqorida aytilganlarni umumlashtirsak, “investitsion jozibadorlik” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: investitsion jozibadorlik — bu potensial investorlar uchun ma'lum bir aktivlar, kompaniyalar, mintaqalar yoki mamlakatlarning jozibadorligini belgilovchi turli moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga asoslangan majmuaviy bahodir. Ushbu tushuncha investorlarning kutishlari va tavakkallarini inobatga olgan holda, ma'lum bir aktivlarga yoki bozorlarga investitsiya kiritishda qabul qilinadigan daromadlilik ehtimolini aks ettiradi.

Shundan kelib chiqib, investitsion jozibadorlikni investitsion muhitning tarkibiy qismi sifatida, investitsion faollikni esa xo‘jalik subyekti yoki davlat iyerarxik tuzilmasining qaysi darajasiga mansubligidan qat’i nazar, investitsion jozibadorlik bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘riladigan kategoriya sifatida talqin qilish lozim.

Bu shuni anglatadiki, investitsion jozibadorlik qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakat, mintaqqa, tarmoq yoki alohida korxonaga hamda tashkilotlardagi investitsion faollik shunchalik kuchli bo‘ladi. Aksincha, investitsion jarayonlar intensivligi va xo‘jalik subyektlari investitsion siyosatining sezilarli muvaffaqiyatlari investorlarni jalb etishga olib keladi. Umuman olganda, “investitsion jozibadorlik” va “investitsion faollik” kategoriyalarining birgalikda baholanishi mamlakat, mintaqqa, tarmoq yoki alohida tashkilotlardagi investitsion iqlimni tavsiflaydi, ya’ni investitsion iqlim o‘z ichiga ham investitsion jozibadorlikni, ham investitsion faollikni oladi.

Investitsion jozibadorlik shu jumladan mamlakat yoki mintaqqa miqyosida ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Bunday tizimda xo‘jalik subyekti aniq loyihalar amalga oshiriladigan mablag‘larni kiritishning yakuniy nuqtasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, agar xalqaro iqtisodiyot miqyosida mazkur tarmoqning rivojlanishi yoki ayrim mamlakat va mintaqalarning iqtisodiyoti inqirozli holatda bo‘lsa, investor uchun ushbu tarmoqqa mablag‘ kiritishning dalillari yetarlicha ishonchli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli investor mablag‘larni kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilayotganda tarmoq jihati alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, investitsiyaga doir qarorlar tanlov jarayoni bo‘yicha eng murakkab qarorlar sirasiga kiradi, chunki ular ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi va bu omillar ko‘p yo‘nalishli, ko‘p mezonli baholashni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurilish sanoatida investitsion jozibadorlikni shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda makroiqtisodiy barqarorlik, normativ-huquqiy muhit, innovatsion salohiyat va raqamli transformatsiya o‘zaro uyg‘unlikda ta’sir etadi. Shu jihatdan, investitsion jozibadorlikni oshirishning ilmiy-nazariy modeli iqtisodiy samaradorlik, strategik boshqaruv va innovatsion o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi qurilish sanoatida investitsion jozibadorlikni shakllantirish jarayonini tizimli, kompleks va innovatsion yondashuv asosida o‘rganishga qaratilgan. Metodologiya nazariy konsepsiyalar, iqtisodiy modellar hamda empirik tahlil usullarining uyg‘unlashuvi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u qurilish tarmog‘ining investitsion salohiyatini baholash, aniqlovchi omillarni tahlil qilish va ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqishni maqsad qiladi. Metodologik jihatdan tadqiqot tizimli yondashuvga tayangan bo‘lib, unda qurilish tarmog‘i iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida, investitsion muhit esa uning rivojlanishini belgilovchi tashqi shart-sharoitlar tizimi sifatida ko‘riladi. Shuningdek, institutsional yondashuv yordamida normativ-huquqiy baza, davlat siyosati, sarmoyadorlar ishonchi va tashkiliy mexanizmlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari uchun ayrim tashkilotlar va tarmoqlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning sezilarli darajada differensiallashuvi xosdir. Alohida olingan xo‘jalik subyekti investitsion jozibadorligini baholashda faqat korxonalar darajasidagina emas, balki mintaqalar va o‘rganilayotgan tarmoq doirasida ham baholash zarur. Bunda butun mamlakat yoki umumiy tarmoq emas, balki mintaqalar doirasida tarmoqlarning investitsion jozibadorligini baholash haqida so‘z yuritish o‘rinlidir.

Mamlakat iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biri — qurilish tarmog‘idir. Boshqa tarmoqlar bilan bir qatorda, ushbu soha qolgan barcha tarmoqlar uchun ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini ta‘minlaydi. Qurilish natijasi yoki mahsuloti sifatida foydalanishga tayyor bo‘lgan turli funksional maqsadlarga mo‘ljallangan bino va inshootlar hamda ularning majmualari qaratiladi.

Ma‘lum bir mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida ko‘plab alohida tashkilotlar, korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlari majmualarga birlashadi.

Mamlakat iqtisodiyoti bir qator majmualardan, jumladan yoqilg‘i-energetika majmuasi (YOEM), agrosanoat majmuasi (ASM), mashinasozlik majmuasi (MM), transport majmuasi (TM), qurilish majmuasi (QM), energetika majmuasi (EM) va boshqa sohalardan tashkil topgan murakkab tizimni ifodalaydi. Shunday qilib, qurilish majmuasiga ham iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari xizmat ko‘rsatadi.

A. N. Asaulning fikriga ko‘ra, “investitsion-qurilish majmuasi – bu kapital qo‘yilmalar shaklida investitsion faoliyatni amalga oshirishni ta‘minlovchi boshqaruv, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarining majmuasidir” [12].

T. N. Sayning qarashlariga ko‘ra, “qurilish majmuasi – bu qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi qurilish, montaj va maxsus pudrat tashkilotlari, qurilish materiallari, konstruksiyalari va detallarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari, loyiha-qidiruv tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, pudrat tashkilotlarining infratuzilma muassasalari hamda ularni boshqaruvchi organlar majmuasidir” [13].

V. V. Buzirev va A. P. Suvorov iqtisodiyotning qurilish sohasini qurilish bozori sifatida tavsiflab, uning faoliyatini bir qator omillar bilan bog‘laydi [14]. Ular orasida qurilish sohasidagi turli mulkchilik shakllari, investitsion-qurilish jarayonidagi ishtirokchilarning erkin tadbirkorlik faoliyati, qurilish mahsulotlariga narxlarning erkin belgilanishi, teng huquqli ishtirokchilar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar, raqobat erkinligi, monopoliyaga qarshi qonunchilik, qimmatli qog‘ozlar bozori, qurilishdagi tavakkallarni sug‘urtalash va bankrot korxonalarni majburiy boshqarish kabi omillar keltiriladi [15].

Qurilish bozorining samarali faoliyat yuritishi uchun infratuzilmaning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu infratuzilma qurilish sohasidagi bozor munosabatlarini rivojlantirishga qulay sharoitlar yaratadigan muassasalar, tashkilotlar, korxonalar va jismoniy shaxslarni o‘z ichiga oladi. Bu imkoniyatlar investorlar va iste‘molchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida qurilish mahsulotlarini yaratishda huquqiy,


tashkiliy, moliyaviy, iqtisodiy va ekologik ta'minotni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda “qurilish korxonasi” atamasi keng qo'llanilib, bu atama mulk shaklidan qat'i nazar, qurilish uchun materiallar, konstruksiyalar, detallar, qurilish texnikasi va uskunalarni yetkazib berishga ixtisoslashgan sanoat-ishlab chiqarish bo'g'inidagi har qanday xo'jalik subyektlariga nisbatan ishlatiladi. Tashkilotlar deganda, odatda, qurilish-montaj (umum-qurilish va ixtisoslashgan qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish hamda qurilish-ekspluatatsiya) xo'jalik subyektlari va infratuzilmaviy bo'g'in tarkibidagi tashkilotlar nazarda tutiladi.

Qurilish tarmog'i iqtisodiyotning boshqa subyektlari — turdosh tarmoqlar bilan o'zaro aloqadorlikda faoliyat yurituvchi tizimdir. Shu sababli uni iqtisodiyot maydonidagi boshqa tarkibiy qismlardan alohida holda o'rganish nafaqat noratsional, balki mazmunsiz hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida “qurilish sanoati” deganda biz turli tarmoqlarga tegishliligi bo'yicha ishlab chiqarishlar majmuasini, shu jumladan yakuniy mahsulotni yaratish jarayonida zarur darajani ta'minlovchi infratuzilma tashkilotlarini o'z ichiga oluvchi ma'lum bir tashkiliy va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'langan boshqariluvchi tizimni tushunamiz.

Barcha turdosh tarmoqlarni ikkita tarkibiy qismga — qurilish sanoatining ichki muhitiga kiruvchi turdosh tarmoqlarga hamda tashqi muhitga kiruvchi turdosh tarmoqlar qismiga ajratish mumkin. Grafik ko'rinishda qurilish majmuasi tuzilmasi 2-rasmda tasvirlangan (2-rasm).



2-rasm. Qurilish sanoati tuzilmasi¹

Qurilishning roli istalgan boshqa tarmoqning rivojlanishida nihoyatda kattadir. Aholi punktlari, mintaqalar va mamlakatdagi transport tizimi, avvalo, yo'llarning mavjudligi, holati va miqdori bilan tavsiflanadi, ular esa qurilish mahsulotlari hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ko'p jihatdan ularda foydalaniladigan va qurilish mahsuloti bo'lgan bino hamda inshootlarning holati bilan belgilanadi. Energetika quvvatlari va samaradorligi ko'p jihatdan murakkab muhandislik inshootlari — to'g'onlar, kaskadlar, kanallar, shlyuzlar, elektr stansiyalari binolari va shu kabi obyektlar bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi esa ko'pincha inson mehnati bilan yaratilgan qishloq xo'jaligi yerlari va ularni obodonlashtirish (melioratsiya, irrigatsiya, o'rmonlarni kesish va kundalardan tozalash, ariqlar, dambalar, terrasalar va shunga o'xshash ishlarsiz) holda mumkin emas.

Shahar infratuzilmasining rivojlanishi, shahar xo'jaligining holati, uy-joylar, ishlab chiqarish binolari va inshootlarining xavfsizligi, shuningdek, inson faoliyatining barcha jabhalarida mehnat qilish, dam olish va yashash uchun qulay sharoitlar yaratish, turmush sifati darajasi — bularning barchasi ko'p jihatdan qurilish tarmog'ining samarali faoliyatiga bog'liq.

Ko'plab tashkilotlar va korxonalar o'z faoliyatini bino, inshoot, majmua va maydonchalarda amalga oshiradi. O'z mohiyatiga ko'ra, istalgan biznes-g'oyani amalga oshirish, avvalo, ushbu g'oyani hayotga tatbiq etuvchi boshqaruv apparati (jamoalari) faoliyat yuritadigan inshoot — ofis yoki kontoraning mavjudligini talab qiladi. Bu inshoot esa aynan qurilish tarmog'i mahsuloti hisoblanadi.

Har qanday korxonaning rivojlanishining keyingi bosqichi — modernizatsiyalash, kengaytirish, qayta ta'mirlash yoki yangidan qurish jarayonlari qurilish tashkilotlarining ishtirokisiz mumkin emas. Shu sababli qurilish tarmog'ining holati istalgan mamlakatda barpo etilayotgan obyektlarning sifati va texnik darajasini belgilab beradi. Mazkur tarmoqning ahamiyati yana shunda namoyon bo'ladiki, unda yaratilgan mahsulotlar o'nlab yillar, hatto asrlar davomida xizmat qiladi. Qurilish tarmog'ining holati butun mamlakat iqtisodiyotining holatiga, uning iqtisodiy qudratiga va mudofaa qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida qurilish sanoati investitsion faoliyatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu soha nafaqat milliy infratuzilmani yangilash va modernizatsiya qilishni ta'minlaydi, balki bandlikni oshirish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham sezilarli hissa qo'shadi. Shu sababli tarmoqning investitsion jozibadorligini shakllantirish masalasi davlat siyosati va iqtisodiy strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Qurilish tarmog'ining investitsion jozibadorligi ko'plab o'zaro bog'liq omillar ta'siri ostida shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu omillarni makroiqtisodiy, institutsional, moliyaviy va innovatsion-texnologik guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Makroiqtisodiy omillar — iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, milliy valyutaning barqarorligi, kredit siyosati va investitsion muhitning umumiy holatini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish, valyuta siyosatini soddalashtirish va investitsiyalar uchun ochiqlik tamoyillarini joriy etish natijasida tarmoqdagi sarmoyaviy faollik sezilarli

oshdi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda qurilish tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi umumiy kapital qo'yilmalarning 17,3 foizini tashkil etgan, bu esa 2019-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'pdir.

Institutsional omillar — investitsion muhitning huquqiy kafolatlari, davlat tomonidan yaratilgan soliq va kredit imtiyozlari, shuningdek, investitsion siyosatning barqarorligi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda “Davlat–xususiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun va “Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida”gi Qonun qabul qilinishi tarmoqdagi huquqiy muhitni sezilarli darajada yaxshilab, xususiy kapitalni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Moliyaviy omillar — kredit resurslari, investitsion fondlar va xorijiy kapital oqimlari bilan bog'liqdir. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, qurilish sohasi loyihalarining 40 foizdan ortig'i tijorat banklari va xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki) tomonidan moliyalashtirilmoqda. Bu holat investitsion jozibadorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Innovatsion-texnologik omillar esa so'nggi yillarda hal qiluvchi rolga ega bo'lib bormoqda. Qurilish jarayonlarida BIM texnologiyalari, IoT tizimlari, energiya tejoychi materiallar va raqamli loyiha boshqaruvi tizimlarini joriy etish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi 15–20 foizga oshgan. “Enter Engineering”, “Artel Construction” va “Modern Construction Group” kabi kompaniyalar bu yo'nalishda muvaffaqiyatli natijalarga erishgan.

O'zbekiston qurilish sanoatida investitsion muhitning rivojlanishida yutuqlar kuzatilayotganiga qaramay, qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- investitsion jarayonlarni tartibga soluvchi hujjatlar bazasi yetarlicha integratsiyalashmagan;
- xorijiy investorlar uchun kafolat mexanizmlari va risklarni sug'urtalash tizimi to'liq shakllanmagan;
- qurilish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda xalqaro standartlar (UNIDO, IFC) to'liq qo'llanilmayapti;
- innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish tizimi yetarlicha samarali emas.

Mazkur muammolar tarmoqda investitsion jozibadorlikning barqaror shakllanishini cheklaydi va investorlar uchun xavf darajasini oshiradi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, investitsion jozibadorlikni ta'minlash uchun quyidagi shart-sharoitlarning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- barqaror makroiqtisodiy muhit va prognoz qilinadigan soliq siyosatini ta'minlash;
- davlat kafolatlari va investitsion sug'urtani kengaytirish;
- xususiy kapital uchun ochiq va raqobatbardosh tender tizimini joriy etish;
- ilmiy-texnik yangiliklarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini kuchaytirish;
- malakali mutaxassislar tayyorlash va innovatsion loyihalar uchun inkubator markazlarini yaratish.

Ushbu shart-sharoitlarning shakllanishi investitsion muhitni yanada barqaror qiladi, xorijiy kapital oqimini ko'paytiradi hamda tarmoqning raqobatbardoshligini oshiradi.

O'zbekiston qurilish sanoatida investitsion jozibadorlikni shakllantirish mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirish va barqaror infratuzilma rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shartdir. Taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi sohada investitsion faoliyatni yangi bosqichga olib chiqadi hamda raqobatbardosh, innovatsion va barqaror qurilish industriyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni — <https://lex.uz/ru/docs/4664144>.

2. Бадин П.В. Совершенствование механизмов инвестиционной политики в легкой промышленности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – 2006.

3. Кабашкин И., Копытов Р. Оценка инвестиционной привлекательности транспортного предприятия // Transport and Telecommunication. – 2004. – Vol.5, №4.

4. Фатеева О.И. Формирование методического подхода к оценке инвестиционной активности строительного предприятия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Тюмень: 2007.

5. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей конкурентов. – Альпина Паблишер, 2016.

6. Карпова, Е. Н. Финансы организаций (предприятий): учебное пособие / Е.Н. Карпова, Е.А. Чумаченко. – Москва: ИНФРА-М, 2020. – 285 с.

7. Грэхем Б. Разумный инвестор. М., Издательский дом «Вильямс», 2009. – 672с.

8. Иррациональный оптимизм: как безрассудное поведение управляет рынками / Роберт Шиллер; Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2013.

9. Путятин Л.М., Ванчугов М.Ю. Оценка инвестиционной привлекательности предприятия на основе его экономического потенциала // Собственность и рынок. 2009. №6. – С. 21-33.

10. Щиборщ К.В. Оценка инвестиционной привлекательности предприятий // Банковские Технологии. 2012. №4. – С. 32-36.

11. Сергеев Н. В. Веретенникова И. Н., Яновский В. В. Организация и финансирование инвестиций. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 400 с.

12. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: "Молия", 2010.

13. Асаул А.Н. Формирование системы управления строительным комплексом в современных условиях / www.aup.ru

14. Цай Т.Н., Грабовый П.Г., Марашда Б. С. Конкуренция и управление рисками на строительных предприятиях в условиях рынка. – М.: Изд-во «Алане», 1997. – 288 с. (на примере строительной отрасли).

15. Бузырев В.В., Суворова А.П. Особенности организации экономического взаимодействия участников строительного комплекса в регионе // Экономика строительства. — 2003. — №12. — С. 14-26.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**